

MAMLAKATIMIZNING JAHON BANKI BILAN HAMKORLIGI

U.A.Yuldasheva¹¹ Ilmiy rahbar:profS.N.Normamatova²² TDIU talabasisitoranormamatova6@gmail.com

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received: 26.04.2024

Revised: 27.04.2024

Accepted: 28.04.2024

KEYWORDS:

Jahon banki,xalqaro hamkorlik,qishloq xo'jaligi,energetika,ijtimoiy islohotlar,strategik islohotlar,moliyaviy yordam,barqaror rivojlanish,stress-test,inklyuziv iqtisodiyot.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining Jahon banki bilan o'zaro hamkorlik aloqalari,ularning ahamiyati va natijalari keng tarzda yoritilgan.Jahon bankining rivojlanayotgan davlatlarni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni hamda O'zbekistonnig iqtisodiy,ijtimoiy va infratuzilma sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishda xalqaro institutlar bilan birgalikda olib borilayotgan ishlari batafsil keltirib o'tilgan.Xususan,qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish,suv resurslaridan samarali foydalanish,qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va energetik infratuzilmalarni barqarorlashtirish bo'yicha loyihalar tahlil qilingan.Shuningdek,ijtimoiy sohalarda – ta'lim,sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilishda amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Jahon banki eng yirik xalqaro moliya institutlaridan biri hisoblanadi.U qariyb 80 yil oldin,ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa va Yaponiyani qayta tiklashga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan.Bugungi kunda Jahon banki guruhi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dunyodagi eng yirik moliyalashtirish va ixtisoslashtirilgan bilim manbalaridan biri hisoblanadi.Jahon banki guruhi tarkibiga kiruvchi beshta tashkilot,shu jumladan,Jahon bankining o'zi ham ushbu mamlakatlarda qashshoqlikni kamaytirish,aholi farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish maqsadida faoliyat olib boradi.Hozirgi kunda jahon bankiga 189 ta davlat a'zo hisoblanadi.Shu jumladan,1992-yilning sentyabr oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi ham Jahon bankining to'la huquqli a'zosi bo'lib kelmoqda.Deyarli,Jahon banki hozirgi kunda Markaziy Osiyoning barcha davlatlarida o'z vakolatxonalariga ega va hozirda jahon bankining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ofisi bo'lib investetsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi hisoblanadi..2022-yilning 24-may kuni jahon banki guruhi ijrochi direktorlar kengashi bankining mamlakatimiz bilan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Milliy taraqqiyot

strategiysi"ni ishlab chiqadi va bu davlatimizning kelgusi besh yilga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor islohotlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.[1]Ushbu operatsiya doirasida jahon banki tomonidan taqdim etiladigan moliyalashtirish hukumat tomonidan amalga oshiralayotgan islohotlar va chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi, jumladan

- Fuqarolarni,shu jumladan,kambag'al va zaif oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshirish maqsadida yangi aholini ijtimoiy himoya qilish Milliy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

- Xususiy sektorda ishlaydigan ayollar ish joylarida kamsitilishlarining xavfini kamaytirish maqsadida davlat tomonidan homiladorlik va tug'ish ("dekret") nafaqasi bo'yicha to'lovlarni kengaytirish.

- Moliyaviy xizmatlar bozorida nobank kredit tashkilotlari sonini ko'paytirish va kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida shunday tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sifatini oshirish.

- Davlat korxonalarini xususiylashtirish, raqobatni rivojlantirish, shuningdek ishbilarmonlik muhiti hamda xususiy sektorni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarning to'lovga qobiliyatsizligi jarayonlarini tartibga solish sohalarida yangi qonunchilik hujjatini ishlab chiqish.

- Mobil telekommunikatsiya aloqalari bozorida barcha ishtirokchilar uchun raqobat muhitini yaratish uchun ushbu bozorda xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish.

- Davlat korxonalarining moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni oshirish va ularning moliyaviy tizimini yaxshilash.

Tobora kengayib borayotgan global iqtisodiy noaniqlik, xalqaro moliya bozorlaridagi murakkablashib borayotgan holat hamda oziq-ovqat mahsulotlari va energoresurslarning jahon bozoridagi narxlari o'sayotganligi sharoitida Jahon banki joriy operatsiya doirasida davlat budjetini moliyaviy qo'llab quvvatlaydi.Jahon banki guruhi muhim rol o'ynagan islohotlardan biri bu-paxta yetishtirish sektorida majburiy mehnatdan foydalanishga barham berilganligi bo'ldi.Yana bir misol,bu guruh ishtirokida Navoiy viloyatida sanoat miqyosidagi birinchi quyosh elektrostansiyasi ishga tushirilishidir.Shuningdek,hamkorlik dasturi O'zbekistonga 2030-yilgacha qator ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradigan sektorlararo vazifalarni amalga oshirishda ham ko'maklashadi.Ularga quydagilar kiradi:

- Gender tengsizlikka barham berish;
- Siyosiy qarorlarni qabul qilishda fuqarolar ishtirokini kuchaytirish va davlat organlarining jamoatchilik oldidagi hisobdorligini mustahkamlash.

Ushbu hamkorlik dasturi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Milliy taraqqiyot strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga o'z hissasini qo'shadi,shuningdek

mamlakatga 2026-yilgacha kambag'allik darajasini ikki barobarga qisqartirishga hamda 2030-yilga qadar O'zbekistonning daromad darajasi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga kirishga yordam beradi deya ta'kidlanadi. Bu hamkorlik dasturi O'zbekiston rivojlanishi yo'lidagi mavjud muammolar va imkoniyatlarning har tomonlama tahlili asosida ishlab chiqilgan.[2]

2022-yil 16-dekabr holatiga ko'ra, Jahon bankining O'zbekistondagi mamlakat bo'yicha dasturi 27 ta loyihani o'z ichiga olgan. Loyihalar hukumat tomonidan Bank ko'magida turli muhim sohalarida amalga oshirilmoqda, xususan, kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, makroiqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, suv resurslarini boshqarish, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti va kanalizatsiya, energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim xizmatlarini, aholini ijtimoiy himoya qilishni, shahar va qishloq infratuzilmasini, innovatsiyalar, soliq ma'murchiligi, statistika idoralari va moliyaviy tizimlarni rivojlantirish va boshqa yo'nalishlarda.

Jahon banki 2024-yil 13-iyun kuni O'zbekiston Respublikasiga energotariflar islohotining aholining ijtimoiy zaif qatlamiga ta'sirini yumshatish maqsadida 7,5 mln dollar miqdoridagi 1-transh mablag'ini ajratdi. Grant xalqaro issiqxona gazlari savdosi simulyatsiyasi sifatida issiqxona gazlari emissiyasi qisqartirilganligi uchun berilgan. Mablag' O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi qaroriga asosan Jahon banki ko'magida amalga oshirilayotgan "Energetika islohotlari uchun innovatsion resurslarni qo'llash" loyihasi doirasida ajratilgan. Shu yilning 4-oktyabr sanasida jahon banki O'zbekistondagi dasturini qo'llab-quvvatlash uchun 800 mln dollar miqdorida imtiyozli kredit ajratishni ma'qulladi. U ijtimoiy himoya tizimi, temiryo'l, va energetika sohalarini, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va boshqa sohalarni qamrab oladi.[3]

Adabiyotlar tahlili

Bugungi kunga qadar bir qancha olimlarimiz xalqaro iqtisodiyot, moliya va jahon banki haqida o'zlarining turlicha fikrlarini keltirib o'tgan. Ulardan biri Jeffri saks (Jeffrey David Sachs) ga qarashli fikrlar bo'lib, u zamonaviy iqtisodiyotning yetakchi nazariyotchilaridan biri, barqaror rivojlanish, global iqtisodiyot va xalqaro taraqqiyot sohasidagi eksportdir. Uning jahon banki va boshqa xalqaro moliya institutlari faoliyatiga munosabat bildirgan holda, ularning global qashshoqlikni kamaytirishdagi rolini e'tirof etgan, ammo ba'zi tanqidiy fikrlarni ham bildirgan. Uning ijobiy fikrlaridan biri bu rivojlanayotgan davlatlarni qo'llab-quvvatlashdagi rolini ta'kidlab o'tgan, ya'ni Sanch jahon bankini qashshoqlikka qarshi kurashda muhim global institut sifatida qaraydi. U bankning infrastrukturani rivojlantirish, sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish bo'yicha ishlarini yuqori baholaydi. Misol tariqasida, Sanch Jahon bankining Afrika rivojlanish loyihalariga e'tibor qaratishini muhim deb hisoblaydi. Bundan tashqari, u bankni davlatlararo iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishda, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tajriba va resurslarni taqdim etishda muhim vosita deb biladi. Jeffri ijodiy fikrlar bilan

bir qatorda tanqidiy qarashlarini ham keltirib o'tgan.U Jahon bankinig kredit shartlari ko'pincha rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiyotiga zarar yetkazganini tanqid qilgan,ayniqsa,1980-1990-yillardagi "Strukturaviy islohot dasturlari"ni qattiq tanqid qilgan.Ushbu dastur davlat sektorini qisqartirish va xususiylashtirishni talab qilgan,bu esa ba'zi mamlakatlarda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirgan.[4] Yana bir olimlarimizdan biri nobel mukofoti sovrindori,inson taraqqiyoti nazariyotchisi –Amartya Senni ta'kidlab o'tishimiz mumkin.Uning ijobiy fikrlari jahon bankining ta'lim va so'g'liqni saqlashni rivojlantirishda ko'rsatgan yordamini yuqori baholaydi,global iqtisodiy resurslarni taqdim etish va davlatlar o'rtasidagi hamorlikni mustahkamlashdagi rolini alohida e'tirof etadi.[5]Shular qatorida xalqaro moliya va rivojlanish iqtisodiyoti sohasidaagi olim Imad Moosa ham xalqaro moliya tizimining ijtimoiy va siyosiy jihatlarini ko'rib chiqadi.Uning fikriga ko'ra,xalqaro moliya institutlari,xususan,Jahon banki va xalqaro valyuta jamg'armasi rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish orqali ularga iqtisodiy mustahkamlikka erishishga yordam berishi kerak.Ammo bu yordamning shartlari ko'pincha iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin degan fikrlarni ilgari suradi.

Tadqiqot Metodologiyasi

Mavzuni ilmiy o'rganish,tahlil va tadqiq etish jarayonida induksiya va deduksiya,tizimli tahlil,statistik tahlil va ilmiy abstraksiya kabi usullaridan atroflicha foydalanilgan.Maqlolada ilmiy abstraksiya usulidan foydalanish zamirida mamlakatimizning Jahon banki bilan hamkorligi to'g'risida muqobil xulosalar chiqarildi va ularga mos ravishda ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga qartilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda Jahon bankining mamlakatimizdagi portfeliga iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi 28 ta loyiha mavjud.Ushbu loyihalar 5,26 mlrd AQSH dollari hajmidagi moliyaviy majburiyatlarni o'z ichiga oladi.Bunga xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasining 3,23 mlrd AQSH dollarilik imtiyozli kreditlari (nol yoki juda past foiz stavkasida 5 yillik imtiyozli davr bilan 30 yilga beriladi) va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining 2,03 mlrd AQSH dollarlik kreditlari kiradi.Ushbu mablag'lardan 2,66 mlrd dollari endi tasdiqlanadi.Bular xalqaro moliya bozorlarida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mavjud bo'lgan eng manfaatli kredit vositalari hisoblanadi.O'sha yillardan buyon hukumat bilan yanada kuchli hamkorlik tufayli O'zbekistondagi faolligimiz sezilarli darajada oshdi. Bu o'sish prezident Shavkat Mirziyoyev milliy iqtisodiyotni transformatsiya qilish va mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirish maqsadida boshlab bergan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning bank tomonidan qo'llab- quyvatlanishi kuchayganligi bilan izohlanadi.[6]2017-yilda hukumat o'tmishning bunday sarqitlariga barham berish yo'lida kuchli siyosiy iroda ko'rsatishini ma'lum qildi. Jahon banki hukumat, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamjamiyat bilan yaqindan hamkorlikda paxtachilik sohasida majburiy mehnatga qarshi kurashga mamnuniyat bilan hissa qo'shdi.2015-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bilan paxtachilik sohasida majburiy mehnatga barham berish borasidagi yutuqlarni monitoring qilish bo'yicha kelishuvga erishdik. Bu tashabbus Yevropa Ittifoqi hamda AQSh, Shveysariya va Germaniya hukumatlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.Jahon banki,

shuningdek, paxtachilik sohasida majburiy mehnatdan foydalanishning asosiy sabablarini bartaraf etishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda hukumatga moliyaviy va konsultativ ko'mak berdi. Bu O'zbekiston qishloq xo'jaligida paxtachilik sohasi va paxta yetishtirish uchun ajratilgan yer maydonlarini boshqarishda davlatning ustuvor rolini qisqartirishga xizmat qilgan qator islohotlarni amalga oshirish imkonini berdi. Bu islohotlar fermerlarga paxta xomashyosi uchun to'lanadigan narxlarning oshishiga olib keldi, paxtachilikda xususiy sektorning yanada kengroq ishtiroki uchun imkoniyatlarni oshirdi, paxta yetishtirishda hosildorlikni kuchaytirdi, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga zamin yaratib berdi. 2019-yildan buyon Jahon banki va IFC ko'magida O'zbekiston Respublikasining bir qator hududlarida umumiy ishlab chiqarish quvvati 1,3 GVt bo'lgan to'rtta quyosh elektr stansiyasi va bitta shamol stansiyasini ishga tushirish uchun xususiy investitsiyalarni jalb qildi. 2024-yil may oyida Jahon banki guruhi tomonidan qo'llab-quvvatlangan yangi loyiha ishga tushirildi. Loyihada Buxoro viloyatida 63 MVt quvvatga ega akkumulyator energiya saqlash tizimli 250 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasini qurish va foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan (bu Markaziy Osiyoda bunday turdagi ilk elektrostansiya hisoblanadi). Stansiya 75 mingga yaqin xonadonni ekologik toza va arzon elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. Bularning barchasi ikki tomonlama hamkorlikning mustahkamligi tufayli muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilgan.[7]

1-jadval. Jahon mamlakatlarining xalqaro qarz statistikasi [8]

	Jami tashqi qarz zahiralari			Davlat va davlat tomonidan kafolatlangan qarzlar			Tashqi qarz zahiralari YaiM ga nisbatan (%)		
Davlatlar	2021	2022	2023	2021	2022	2023	2021	2022	2023
Xitoy	27243 53,7	24480 50,1	24202 10,8	4751 67,3	4643 66,1	4679 96,0	1 5,4	1 3,8	1 3,7
Turkiya	43637 0,1	45791 7,1	49984 2,5	1391 97,5	1402 40,1	1493 69,4	5 3,9	5 1	4 6,5
Ukraina	13690 7,6	14331 7,9	17664 5,5	4491 7,7	6159 2,2	8766 4,4	7 0,6	8 4,1	9 5,9
O'zbekiston	40606 ,4	48993 ,0	59184 ,4	2168 9,1	2465 8,6	2888 6,6	5 8	5 9,7	6 5,7
Tojikiston	6590, 6	6723, 5	6872, 8	3141 ,9	3070 ,4	3090 ,8	6 1,3	4 7,3	4 5,4
Qirg'iziston	9060, 6	9745, 8	10115 ,1	3958 ,4	4030 ,9	4192 ,3	1 05	8 4,6	7 6,1

Mazkur jadval ma'lumotlariga asosan biz bir nechta davlatlarning tashqi qarz zahiralari va ularning YaiM ga nisbatini ko'rishimiz mumkin. Birinchi o'rinda xitoy davlatini oladigan bo'lsak, uning tashqi qarz zahiralari yidan-yilga pasayib bormoqda, 2021-yilda 2,274 mlrd \$

bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 0,304 \$ pasayganini ko'rishimiz mumkin. Bu davlatining YaIM ga nisbati ham pasayib bormoqda, bu iqtisodiyotning o'sishi va qarzlarini kamaytirish bo'yicha samarali siyosatni anglatadi. 2021-yilda 15,4% bo'lsa ikki yil mobaynida 1,7% gacha tushishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Shu o'rinda Turkiya davlatini oladigan bo'lsak, bunda aksincha, bu davlatning tashqi qarzlarini barqaror o'sib bormoqda, 2 yil ichida 33 mlrd \$ dollariga o'sgan. Ammo, shu o'rinda Turkiya davlatining YaIM ga nisbati kamaymoqda. Aytishimiz joizki, bu mamlakat qarz olishni ko'paytirayotgan bo'lsada, iqtisodiy o'sish surati uning qarz yukini yengillashtirmoqda. Shu bilan birgalikda, mamlakatimizning ham tashqi qarz hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, 2021-yilda 40,6 mlrd \$ dollari bo'lib, ikki yil davomida 18,5 \$ dollarga oshgan. YaIM ga nisbati ham sezilarli darajada oshgan. O'zbekiston tashqi qarzini oshirayotgan bo'lsada, bu iqtisodiyotga yanada bosim qo'shmoqda. Qolgan davlatlarni ham shu tarzda ko'rib chiqishimiz mumkin. Endilikda davlatlararo taqqoslanishlarni ko'rib chiqsak, Xitoyning tashqi qarzlarini Ukraina davlatidan 14 barobarga ko'pligini guvohi bo'lishimiz mumkin. YaIM ga nisbati esa Xitoyda bu ko'rsatkich 13,7%, Ukrainada 95,9 % holatida namoyon bo'lmoqda. Xitoy o'z iqtisodiy qudrati sababli qarzlarini yaxshi boshqarmoqda, Ukrainada esa qarz bosimi YaIM ga nisbatan juda katta. Tojikiston va Qirg'izistonni oladigan bo'lsak, Qirg'izistonning qarz zahiralarini Tojikistonga qaraganda yuqoriroqni ko'rsatmoqda, 3,3 mlrd \$ lik farq bilan. Tojikistonda YaIM ga nisbati 45,4%, Qirg'izistonda esa 76,1 % ni tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, Tojikiston qarz yukini nisbatan yaxshi boshqarmoqda, Qirg'iziston esa hali yuqori darajada qolmoqda, lekin YaIMga nisbatan pasayib bormoqda. Umumiy xulosalarga keladigan bo'lsak, eng katta tashqi qarzi bor davlat bu Xitoy, lekin YaIMga nisbati eng pastlaridan biri. Eng katta YaIMga nisbati bor davlatlar Ukraina va Qirg'iziston - bu davlatlar iqtisodiy jihatdan zaifroq deb qaraladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, eng yaxshi qarz boshqaruviga ega davlatlar Tojikiston va Turkiya bo'lib, bular YaIMga nisbatan qarzlarini sezilarli darajada kamaytirgan. Eng katta iqtisodiy xavf kutilayotgan davlatlar bular - O'zbekiston va Ukraina, chunki ular qarz yukini oshirishda davom etmoqda va YaIMga nisbati ham yuqorilashmoqda.

Xulosa

Mamlakatimizning jahon banklari bilan hamkorligi tobora o'sib va rivojlanib bormoqda, shu bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farvonlikni oshirish va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ushbu hamkorlikning asosiy maqsadi - milliy iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirish, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va aholining hayot sifatini yaxshilashdan iboratdir. Jahon banklari bilan hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam bermoqda. Xususan, energetika transport, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarga qaratilgan yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, aholiga yangi

ish o'rinlari yaratish, turmush sharoitlarini yaxshilash va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Jahon banklari ekspertlari va texnik yordam ko'rsatish orqali davlat boshqaruvini takomillashtirish, moliyaviy tizimni mustahkamlash va biznesni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish bo'yicha tavsiyalar berib kelmoqda. Bu hamkorlik xalqaro tajribalarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu o'rinda aytish joizki, Jahon banklari tomonidan ajratilayotgan grantlar, kreditlar va moliyaviy yordamlar mamlakatimizdagi strategik maqsadlarni amalga oshirishda asosiy qo'llab-quvvatlashlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu mablag'lar shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash tamoyillari asosida ishlatilmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki jahon hamjamiyatida mamlakatimizning obro'sini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, Jahon banklari bilan hamkorlik mamlakatimizni barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqish, xalq farovonligini oshirish va xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyani kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. Bu hamkorlikning muvaffaqiyatli davom etishi milliy manfaatlarimizni ilgari surishda va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Jahon banki guruhi ijrochi direktorlar kengashi va mamlakatimiz bilan birgalikda bo'lgan uchrashuvdagi qarorga muvofiq
2. World Bank <https://thedocs.worldbank.org>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Energetika islohotlari uchun innovatsion resurslarni qo'llash" loyihasi doirasidagi qarori 2023-yil 8-avgust. manba: <https://lex.uz>
4. "The End of Poverty" "Common Wealth: Economics for a Crowded Planet"
5. "Development as Freedom", "The Idea of Justice"
6. www.prezident.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank sayti <https://cbu.uz>
8. Jahon mamlakatlarining xalqaro qarz statistikasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.